

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Technical Sciences, Professor.
2. Akhmedov Khojiakbarxon Dilshotovich – Rector of the Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences (PhD equivalent), Associate Professor.
3. Gulyamov Saidahrar Saidakhmedovich – Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Economic Sciences, Professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich - Professor at the National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers," Doctor of Technical Sciences.
5. Sultanov Mansur Kilichovich – Director General of the "Inno" Innovative Educational and Production Technopark under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation, Doctor of Technical Sciences, Associate Professor.
6. Shamshieva Nargizakhon Nosirkhoja qizi - Secretary of the Council of Tashkent State University of Economics, Doctor of Economic Sciences, Professor.
7. Mukhamedieva Dildora Kabilovna - Professor at Tashkent University of Information Technologies, Doctor of Technical Sciences
8. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Professor at Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Doctor of Economic Sciences.
9. Popkova Yelena Gennadyevna – President of the "Institute of Scientific Communications" of the Russian Federation, Doctor of Economic Sciences, Professor.
10. Dr. Goh Khang Wen – Vice-Rector of INTI International University, Malaysia.
11. Wang Cheng – Associate Professor at the "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" in the People's Republic of China, PhD.
12. Yuldoshev Nuritdin Kurbonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
13. Akramov Tohir Abdirakhmonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
14. Sobirov Azizbek Avazbekovich – Associate Professor at Tashkent State University of Economics, PhD.
15. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Head of the Department of International Scientific Journals and Ratings, Alfraganus University, Candidate of Economic Sciences.
16. Khotamov Ibodullo Sadulloyevich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences.
17. Turakulov Otabek Kholmizrayevich – Head of the Department of Engineering and Information Technologies at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
18. Yuldasheva Saodat Arislanovna – Head of the Department of Economics, Tashkent State Transport University, Candidate of Economic Sciences.
19. Giyosidinov Boburbek Baxtiyorovich - Acting Associate Professor at Tashkent State Transport University, Doctor of Philosophy.
20. Primov Sirojiddin Furqat ugli — Senior Lecturer at the Department of Business Management and Finance, Tashkent Institute of Management and Economics, PhD in Economics.

MUNDARIJA

Radjabov B.A.	Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribalari	3
Xakimov Z.A. Xidoyatov M.B.	O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	10
Soliyev D.J. Oxunova D.O.	O'zbekistonda islomiy moliya munosabatlarini joriy etish: muommo va yechimlari	18
Abdufattoxonova X.	Sun'iy intellekt texnologiyalarining menejmentdagi qo'llanilishi: Imkoniyatlar va xavflar	25
Otaboyev F.O.	Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish nazariyalari evolyutsiyasi va xalqaro kapital parakatini tartibga solish	31
Sharipov Sh.X.	Smart purkagichlar texnologiyalarining adabiy tahlili	44
Mamasoatov D.R.	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	49
Han Zihao	A study on the impact of china-uzbekistan transportation connectivity projects on regional trade costs (e.g., the china-kyrgyzstan-uzbekistan railway)	54
Zhang Shaojie	A study on the economic effects of chinese aid in promoting the modernization of education in uzbekistan	61
Wang Anning	Trade Characteristics of Uzbekistan's Imports of Fruit and Vegetable Agricultural Products from Xinjiang, China	69
Omonturdiyev O.E.	O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish istiqbollari	82
Xaydarov S.X.	Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli bank xizmatlarining o'рни va bunda xorijiy mamlakatlar tajribasi	86
Sobirov A.A.	Marketing ekotizimini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari	92
Akramov T.A.	Korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish asosida raqobatbardoshligini oshirish	99
Abduraxmonova F.N.	To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish	107
Ботиров Л.Б. Хамидова Н.И.	Порядок организации системы бухгалтерского учета в промышленности строительных материалов	112
Hakimov A.L. Bozorboev X.T. Suyunov Y.B.	Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or xorijiy tajribalar tahlili	117
Сайдалиева Г.А.	Қишлоқ хўжалиги ерларини баҳолаш ва унинг натижаларидан фойдаланишнинг назарий ва услубий асослари	127
Mullajonov I.T.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari	136
Qudratxo'jayev A.Q.	Sanoat korxonalari faoliyatini aylanma iqtisodiyot modeli asosida takomillashtirish	143

BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING O'RNINI VA BUNDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Xaydarov Sardor Xamdamjon o'g'li
Fan va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot kafedrası
magistratura 1 kurs talabasi
e-mail:sardorkhaydarov39@gmail.com
ORCID:0009-0007-0137-2550

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli bank xizmatlarining o'rnini, uning bugungi kunda joriy etilish darajasi va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish orqali bank xizmatlari samaradorligini yanada oshirish masalalari keng yoritildi. Xususan dunyoning rivojlangan davlatlari bo'lmish AQSH, Buyuk Britaniya va Hindiston kabi davlatlardagi mavjud raqamli bank xizmatlari o'rganilib tahlil qilindi. Shuningdek bank xizmatlari rivojlanishida asosiy omil hisoblangan aholining bank xizmatlaridan hususan raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi o'rganildi hamda umumiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: bank, raqamli bank, blokcheyn, sun'iy intellekt, moliyaviy savodxonlik, UPI to'lov tizimi.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of enhancing the efficiency of banking services through the development of digital banking services, the current level of their implementation, and the use of foreign best practices to further improve banking service efficiency. In particular, existing digital banking services in developed countries such as the USA, the United Kingdom, and India were examined and analyzed. Additionally, the study explored the population's level of utilization of banking services, especially digital services, which are considered a key factor in the development of banking services, and general proposals and recommendations were formulated.

Key words: Bank, Digital bank, Blockchain, Artificial intelligence (AI), Financial literacy, UPI payment system.

Аннотация: В данной научной статье широко освещены вопросы повышения эффективности банковских услуг за счёт развития цифровых банковских сервисов, уровень их внедрения на сегодняшний день, а также использование опыта зарубежных стран для дальнейшего повышения эффективности банковских услуг. В частности, были изучены и проанализированы существующие цифровые банковские услуги в таких развитых странах, как США, Великобритания и Индия. Кроме того, исследован уровень использования населением банковских услуг, в частности цифровых сервисов, которые являются основным фактором развития банковских услуг, а также разработаны общие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Банк, Цифровой банк, Искусственный интеллект, Финансовая грамотность, Платёжная система UPI.

Kirish. Bugungi kunda butun raqamlashtirish jarayonlari tez sur'atlar dunyoda axborot texnologiyalari sohasi bilan o'sib bormoqda. Biz buni hayotning hususan iqtisodiyotning turli sohalarini har bir jabhasida chuqur his qilmoqdamiz.

Iqtisodiyotning asosiy “qon tomiri” hisoblangan bank sektori ham bu o’zgarishlardan chetda qolayotgani yo’q. Bugungi kunda tijorat banklari o’zlarining mobil ilovalari orqali aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga turli xil bank xizmatlarini raqamli usulda taqdim etib kelmoqdalar. Bu esa banklarning mijozlar bilan ishlash uslubini tubdan o’zgartirdi. Raqamli bank xizmatlarining kirib kelishi nafaqat banklarning operatsion xarajatlarni qisqartirishga, balki xizmat ko’rsatish tezligini oshirishga hamda aholi keng qatlamining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Bundan tashqari raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi tijorat banklari tomonidan mobil ilovalar, mobil banking, internet-banking orqali xizmatlar ko’rsatishda raqobat muhitini kuchaytirib, banklarni innovatsion yechimlar ustida yanada ko’proq ishlashga undamoqda. Albatta bu jarayonda turli muammolar va ularning hal etilishi bilan bo’g’liq masalalar yuzaga kelishi ham yuzaga kelishi ham tabiiy. Masalan aholing zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish darajasi ham raqamli bank xizmatlaridan darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonlarini chuqur o’rganish, ularning afzalliklari, imkoniyatlari va mavjud muammolarini tahlil qilish zamonaviy bank islohoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So’nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning turli sohalariga raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Buning uchun xorijiy ilg’or tajriba o’rganilib milliy iqtisodiyotimizga moslashtirilmoqda. Bu

borada turli tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Jumladan; G.Shokirova o’z maqolasida raqamli banklarning SWOT tahlilini amalga oshirgan. B.Mamayev va X.Abdug’ofurovlar o’z izlanishlarida bank xizmatlarini soddalashtirish, mijozga yo’naltirilgan xizmat turlarini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va axborot texnologiyalarini bank tizimiga chuqur integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydilar. A.Umarov va X.Akramovlar o’z izlanishlarida fintech, Open banking va Green banking kabi raqamli banklarning faoliyatini o’rganib O’zbekiston sharoitida ushbu xorijiy yutuqlarni bevosita ko’chirish emas, balki ularni milliy iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik imkoniyatlarga moslashtirish eng maqsadga muvofiq yo’l ekanligini aytib o’tishgan. Y.Matyaqubov o’z maqolasida raqamli bankning 4 modelini ajratib o’rgangan. M.Sagdiyeva o’z maqolasida Kadrlar malakasini oshirish, innovatsion fikrlashni rag’batlantirish, Raqamli bank faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish borasida o’z takliflarini bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. ushbu tadqiqot mavzusini yoritishda asosan statistik, tahliliy, induktiv, deduktiv va boshqa tahlil usullaridan foydalanilib mavzuni to’liq yoritishga harakat qilindi. Mavzuni yoritishda asosan chet davlatlarda bank xizmatlarini rivojlantirishda amalga oshirilgan islohotlar o’rganildi. O’zbekiston bank tizimining ham bugungi kundagi holati tahlil qilinib tegishli statistik ma’lumotlar taqdim etildi va bank tizimini rivojlantirishda chet davlatlar tarjibalaridan foydalanish bo’yicha

takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli texnologiyalar dunyo miqyosida ko'plab sohalarda tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Buning natijasida ushbu sohalarda xizmat ko'rsatish darajasi va sifati yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan bank tizimida raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi sohada bank xizmatlari iste'molchilariga onlayn xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini oshirib qulaylik muhitini yaratdi. Raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi mijozlarga bank xizmatlaridan foydalanishda qulaylik yaratish va buning natijasida mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirish yo'lidagi eng muhim islohotlardan biridir. COVID-19

pandemiyasidan oldin elektron bank xizmatlari qo'shimcha xizmat hisoblangan edi, ammo pandemiya mobil bank va internet bankga va umuman masofaviy raqamli xizmatlarga bo'lgan global qarashni butunlay o'zgartirdi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini oladigan bo'lsak raqamli bank xizmatlaridan aholining asosiy qismi faol tarzda foydalanmoqda. Bunga sabab sifatli internet, moliyaviy savodxonlik, IT sohasining rivoji va hokazo. Jumladan AQSHda aholining raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasini quyidagi jadval asosida tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval

AQSH aholisining raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari


Yillar	Raqamli bank xizmatlaridan foydalangan aholi soni (million)	Umumiy aholi soniga nisbatan % da
2021	196,8	75,4
2022	203,0	77,2
2023	208,0	78,4
2024	212,8	79,6
2025	216,8	80,4

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki 2025 yilda AQSH aholisining raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi 80,4 foiz ya'ni 216.8 mln. kishiga yetgan. Mamlakatda raqamli bank xizmatlarini taklif etish bo'yicha eng yirik banklar sifatida Ally Bank, Chime Financial, Varo Bank, SoFi kabi banklarni misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu banklar ko'plab turdagi moliyaviy xizmatlarni taklif etib, mijozlarga kredit olish, mablag' jamg'arish, investitsiya qilish va mablag'larini himoya qilishda yordam beradi bularning barchasi qulay va uzluksiz ravishda mobil ilovalar orqali amalga oshiriladi. Hindiston tajribasini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu

mamlakatda bank tizimi 12 ta davlat banki, 21 ta xususiy bank, 44 ta xorijiy bank va 12 ta kichik moliya banklaridan iborat. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda Hindistonning qishloq hududlarida barcha yangi bank hisoblari raqamli ravishda ochilmoqda. "Raqamli tranzaksiya hajmi juda katta: 2023-2024 moliya yili hisobi bo'yicha amalga oshirilgan raqamli tranzaksiyalar soni 1,64 trillionni tashkil etgan". Banklarning daromadlilik darajasi ham yuqori. Birgina 2023 yilda davlat banklarining ja'mi aktivlari 1 686,70 milliard AQSH dollarini, xususiy banklarning aktivlari esa 1 016,39 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Eng yirik

raqamli banklardan Jupiter, Fi Money, NiyoX, Airtel Payments Bank va IDFC FIRST banklarni misol sifatida keltirish mumkin. Hindistonda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanganligi va ommabopligini birgina UPI tizimi misolida ham ko'rishimiz mumkin. UPI bu – tezkor banklararo to'lov tizimi hisoblanib, foydalanuvchiga mobil qurilma orqali bankdagi hisobraqamdan boshqa bankdagi hisobraqamga darhol pul o'tkazish imkoniyatini beradi. UPI tizimi O'zbekistonda faoliyat olib boradigan Click va Payme to'lov tizimlariga o'xshash tizim bo'lib, lekin ulardan farqli ustunlik jihatlari bor. Masalan, barcha tadbirkorlik sub'ektlari terminal olmasdan turib bitta UPI QR orqali to'lovlarni darhol bankdagi o'z hisob raqamiga tushirishi mumkin. "Bugungi kunda UPI to'lov tizimi 65 million tadbirkorlik sub'ektlari va 491 million jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatib kelmoqda". Albatta raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish darajasi ko'plab omillarga bog'liq. Masalan internet tarmog'ining sifati va tezkorligi, kiberxavfsizlik, aholining savodxonlik darajasi, xizmatning sifatli tashkil etilganligi, yetuk dasturchi mutaxassislar va hokazo. So'ngi yillarda respublikamizda ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari o'z mobil ilovalari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga turli xil bank xizmatlarini jumladan, kredit olish, hisob raqamdagi mablag'lar qoldiqlarini boshqarish, onlayn omonat xizmatlari kabi bir qancha xizmatlari turlarini taqdim etib kelmoqda. Bu esa ushbu xizmatlardan

foydalanuvchilar vaqtini tejash, 24/7 rejimida bank xizmatlaridan foydalana olish va bank harajatlarini sezilarli ravishda kamaytirish imkonini bermoqda. Mamlakatimizda 2018 yildan boshlab hukumat tomonidan axborot texnologiyalar sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilishi natijasida bank sohasida innovatsion yechimlarni taklif qiladigan "TBC bank" va "Anorbank" kabi raqamli banklar tashkil etildi. Buning natijasida bank xizmatlarini raqamlashtirish borasida tijorat banklari o'rtasida raqobat muhiti shakllandi. Internet tezligi bo'yicha ham O'zbekiston dunyoda o'z reytingini mustahkamlamoqda. 2025 yil oktyabr oyi holatiga "Speedtest Global Index"ning ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz mobil internet tezligi bo'yicha jahon reytingida 104 ta davlat orasida 71-o'rinni egallagan. Mamlakat aholisining internetdan foydalanish darajasi "2025 yil yanvar-avgust oylarida 94,2 % ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich avvalgi yillarda jumladan 2021 yilda 76,6 %, 2022 yilda 83,9 %, 2023 yilda 89,0 % va 2024 yilda 93,3 % ni tashkil etgan". Bu ko'rsatkichlar ham mamlakatimizda raqamli bank xizmatlari ko'rsatish darajasiga ijobiy ta'sir o'tkazmoqda. Shunga qaramasdan raqamli bank xizmatlaridan jumladan mobil bank xizmatidan foydalanishda hududlar o'rtasida katta tafovud mavjud. OTB tomonidan o'tkazilgan kichik tadqiqot natijalariga ko'ra O'zbekistonda shaharlar aholisi bank xizmatlaridan foydalanishda an'anaviy bank xizmat nuqtalari bilan bir qatorda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalansa, qishloq aholisi esa an'anaviy bank xizmatlariga qat'iy ustunlik beradi.



Mobil bank xizmatlarini afzal ko'rish darajasi (hududlar bo'yicha) 1-rasm

Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahri bo'yicha tadqiqotda qatnashgan aholining 40 foizi mobil bank xizmatlaridan foydalanishni afzal ko'rishini ma'lum qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Xorazm viloyatida 15 foizni tashkil qilgan. Buning asosiy sabablari sifatida qishloq joylarda moliyaviy savodxonlik, axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalari, internet tezligi va raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonch yoki talabning shahar hududlariga qaraganda nisbatan pastligidadir. Raqamli bank xizmatlari rivojlanib borar ekan yuzaga keladigan muammolarni yechish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

Raqamli va moliyaviy savodxonlikni oshirish. aholining ayrim toifalari bank xizmatlaridan to'liq foydalanishni bilmaydi. Ko'p holatlarda qarz yuki, kredit foizini stavkasi va muddati bo'yicha ma'lumotlar va ko'nikmalar yetarli bo'lmagani sababli turli

muammolar kelib chiqadi. Raqamli savodxonlik darajasini oshirish masalasi ham juda muhim. Bugungi kunda kiberjinoyatlar asosan foydalanuvchi mobil qurilmasiga soxta qo'ng'iroq, shubhali havola va turli zararli ilovalar yuborish orqali amalga oshirilmoqda. Birgina "2024 yilda fuqarolardan bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlari to'g'risida ja'mi 460 ta murajaat kelib tushgan". Aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish uchun banklar tomonidan doimiy ravishda treninglar o'tkazilib maxsus videoroliklar tayyorlab borilishi lozim. Sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish: blokcheyn texnologiyasi va sun'iy intellektni joriy qilish banklardagi ma'lumotlarning xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlab, korrupsiya va firibgarlik holatlarining oldini oladi hamda inson aralashuvini maksimal ravishda cheklaydi. IT sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash: ma'lumotlarga ko'ra IT sohasida, jumladan

kiberxavfsizlik va AI sohasi mutaxassislariga bugungi kunda talab juda yuqori, ammo malakali mutaxassislar yetishmovchiligi mavjud. Bu esa soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omildir. Demak bank tizimida keng ko'lamli raqamlashtirish ishlarini olib borish uchun yuqoridagi chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilishi, raqamli bank xizmatlarini aholining barcha qatlamlari uchun qulay va xavfsiz qilish lozim.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib shularni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar bank sohasiga keng joriy

etilishining banklar va bank mijozlari uchun bir qancha afzalliklari mavjud. Jumladan: Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligi ortadi; Tijorat banklari o'rtasida raqobat muhiti kuchayadi, bu esa bank xizmatlari narxlarining pasayishiga sabab bo'ladi.

Xizmatlar diversifikatsiyasining kengayishiga sabab bo'ladi Bank harajatlarini keskin kamayadi. Bank sohasida raqamlashtirishning kuchayishi IT sohasi mutahassislariga bo'lgan talabni oshiradi, bu esa qo'shimcha ish o'rinlarining ko'payishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. G.Shokirova. "Raqamli Bank Tushunchasi Va O'zbekiston Respublikasida Raqamlashtirish Darajasi" *Development Of Pedagogical Technologies In Modern Sciences* jurnali: 90–102.
2. B. Mamayev va X.Abduq'ofurov "O'zbekistonda Raqamli Bank Xizmatlari Bozorini Rivojlantirish Istiqbollari" *Educational Yield Insights & Breakthroughs* jurnali: (2024) 5-9.
3. Y.Matyaqubov "O'zbekiston Raqamli Moliyani Rivojlantirish Istiqbollari" *Central Asian Journal Of Multidisciplinary Research And Management Tudies* (2025) 98-101.
4. M. Sagdiyeva "Banklar Faoliyatini Raqamlashtirishning Yangi Tendensiyalari" *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* jurnali: (2025) 78-83.
5. www.stat.uz
6. www.cbu.uz
7. www.meity.gov.in
8. www.pib.gov.in
9. electroiql.com

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114